

**YOSHLAR MA'NAVIYATI VA KITOBOXONLIK MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7730096>



ELSEVIER



Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023


Komiljon Eshtemirov

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti

3-bosqich talabasi

S.B.Tilabaev

Ilmiy rahbar t.f.n



Abstract:

Keywords:

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

223

Bugungi globallashuv va tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan murakkab va shiddatli davrda mamlakatimiz yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish, ularni voqeliklar yuzasidan xolis va mustaqil fikrga ega bo'lishi, to'g'ri va maqbul xulosa chiqara olish salohiyatini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ta'lim jarayoni dolzarb ahamiyat kasb etadi.

"Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishni kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishning eng muhim sharti"²²⁴. Ma'lumki, respublikamizda olib borilayotgan islohotlarda yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniksa, mamlakatimizda yoshlarni manaviyatini rivojlantirish uchun tashkiliy-hukukiy va ijtimoiy shart sharoitlar yaratilayotganini ta'kidlash mumkin. Hususan, "Yoshlar-kelajagimiz" jamg'armasi, Yoshlar klubi, Yosh tadbirkor, Temurbeklar maktabi, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar, Yoshlar kutubxonasi, Yosh kitobxon ko'rik tanlovi kabilarni tashkil etilishi yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishga xizmat kilmokda. "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir"²²⁵.

²²³ Ilmiy rahbar t.f.n. S.B.Tilabaev.

²²⁴ Mirziyoev Sh.M. Milliy tarqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib , yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B.23.

²²⁵ Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom zttirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –B. 27.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratish masalalari ko'rib chiqildi. Bunda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish, ular qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo'lishi ta'kidlandi²²⁶. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar ma'naviyati bo'yicha o'z chiqishida ta'kidlaganidek, "tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi"²²⁷.

Bugungi kunda O'zbekiston yoshlar masalasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalar beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak".²²⁸ Yoshlar masalasi xalqimiz tomonidan doimo eng muhim masalar qatoridan o'rinnegallab kelgan. "Ilm deb o'qumak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'r ganmak aytilur".²²⁹ "Ilmni kim vositayi joh etar, O'zini-yu xalqni gumroh etar".²³⁰

XXI asr texnika va texnologiyalar rivojlangan, axborot almashinuv elektron ko'rinishda taraqqiy etib bormoqda. Ilm-fanga oid ma'lumotlar kitob shaklidan elektron ko'rinishga o'tib bormoqda. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashuv davrida yoshlarimizni turli yot g'oyalarga qarshi tura olishlari uchun, ularni fikrlash dunyosi nihoyatda keng, vayronkor g'oyaga qarshi, o'zining aql-zakovati, yuksak ilm salohiyati bilan kurasha oladigan qilib tarbiyalash hozirgi davrning asosiy shartidir. Bu yo'lda esa, bizga eng katta ko'makchi kitob

²²⁶ <https://www.aza.uz/yoshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-bosh-vaqtini-mazmunli-tashkil-etish-boyicha-muhim-vazifalar-belgilab-berildi.html>

²²⁷ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tarqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib , yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B.505.

²²⁸ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent : O'zbekiston. 2021. – B.12.

²²⁹ Abulla Avloniy Tanlangan asarlar: 2 jiddlik. 2-nashri. 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. –T.: "Ma'naviyat", 2006. - B. 48.

²³⁰ Alisher Navoiy. Xamsa. – T.: Yangi asr avlodji, 2018. – B. 59

hisoblanadi. Bizning ajdodlarimiz qadimdan kitobga o'zgacha e'tibor bilan qaragan. O'z davring yetuk mutafakkirlari, olim-u, fuzalolari ham shu kitob orqali, ulardagi bilimlarni egallash orqali o'sha darajaga yetishgani bizga ma'lumdir.

Bugungi kunda o'quvchilarning kitobga murojaat qilishi kamaygandek ko'rindi. Aslida kitobxonlik masalasini chuqurroq anglaydigan bo'lsak, kitob – insonga dunyoni anglash, uni tushunib yetishida ko'maklashuvchi ma'naviy vositadir. Insonning ma'naviy kamolotga erishishida kitobchalik kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu sababdan ham buyuk donishmand olimlar, yetuk mutafakkirlar, ahli ilm vakillari insoniyatni kitob o'qib ilm olishga chorlab kelgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi"²³¹.

Hozirgi axborot-texnologiyalari, internet sohasi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yoshlarda kitob o'qish, kitobxonlikka qiziqish uyg'otish dunyo hamjamiyati oldida turgan bunday muhim masalalarga, xalqaro jamiyat turlicha yechim qidirib ko'rmoqda. Ko'plab rivojlangan davlatlar, hattoki, kitoblarning qimmatligi sababli yuzaga keladigan moliyaviy muomolarni oldini olish uchun fuqarolariga kitob sotib olishi uchun oylik moashiga qo'shimcha mablag'lar ham to'lab berishni yo'lga qo'yan. Bu kabi harakatlarning zamirida insoniyatni ilmsizlikdan qutqartish va uni ortidan kelib chiqadigan johillik, razillik, tubanlik singari insoniyat hayotiga xavf to'g'diruvchi yomon illatga qarshi kurashish yotadi. Prezidentimiz shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi kurashadigan ma'rifat ma'rifat, ma'rifiy bilimlar ota-bobolarimiz bizga qoldirgan mo'tabar kitoblarda.²³² – deydi.

Hozirgi dunyoda rivojlangan va rivojlanayotgan ko'plab davlatlar ham kitobning qanchalik katta qudratga ega ekanligini his qilgan holda kitob bo'lgan e'tiborni yuksak darajaga olib chiqishgan. Har bir fuqarosining kitobga oshno bo'lishi uchun turli usullardan foydalanishadi. 2005 yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra Braziliya qamoqxonalarida taxminan 513 ming kishi bor edi, ularning 30 foizigina maktab ma'lumotiga ega bo'lgan. Mahbuslar ma'lumotlarini yaxshilash va reabilitatsiya qilish uchun 2012 yilda qonun qabul qilindi. Unga ko'ra qamoqxonada kitob o'qish orqali jazo muddatini qisqartirish nazarda tutilgan edi. Har bir o'qilgan kitob uchun qamoq muddati 4 kunga qisqartiriladi. Lekin, yiliga 12 tadan ko'p bo'limgan kitob hisobga olinadi (bir yilda 48 kun)²³³. Bu orqali hayot

²³¹ <https://qalampir.uz/uz/news/bu-millatning-kitob-uk-imasligi-kimga-kerak> (Murojat etilgan sana: 01.03.2023)

²³² Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston NMU, 2018. - B. 15.

²³³ <https://zamin.uz/uz/dunyo/62820-braziyalik-mahbuslarning-jazo-muddati-kitob-oqishi-orqali-qisqartirilar-ekan.html> (Murojat etilgan sana: 01.03.2023)

yo'lida adashgan, jinoyat ko'chasiga kirgan mahbuslarni ham bu yo'lidan qaytarish uchun kitobdan foydalanish orqali, ularning ruhiy dunyosiga ta'sir etish ko'zda tutilgan. Bu kabi aslida oddiy, lekin juda samarali usullardan foydalanish xalqda kitobga nisbatan o'zgacha qiziqish uyg'otib, mehr qo'yishlariga sababchi bo'ladi. Shunga o'xhash qaror va qonunlar boshqa davlatlarda takomillashtirilib qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizda ham yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirishda kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilmoqda va huquqiy-normativ asoslari yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi²³⁴ va 2018 yil 12 maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarni tashkil etish to'g'risida"gi²³⁵ qarorlari asosida davlatimizda yoshlarni kitobxonlikka jalb etish va kitob mutoalasiga qiziqishini oshirish kabi masalalarning huquqiy asosi yaratila boshlandi. Ularda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, adabiy-badiiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko'rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do'konlari faoliyatini rivojlantirish, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish va boshqa shu kabi vazifalar belgilil, amaliyotga joriy etila boshlandi.

Ushbu qaror va farmoyishlar doirasida 2018-2019-yillarda nashriyotlarda darsliklardan tashqari 1 587 nomda 21 640 mingdan ortiq nusxada kitob chop etilgan. 2017-2019 yillarda O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan nashriyotlarga 16 018 ta (2017 yilda 4911 ta, 2018-yilda 5334 ta, 2019 yilda 5773 ta) ISBN (International Standard Book number) kitobning xalqaro standart tartib raqami taqdim etilgan. 2019-yil 2 – 4-oktabr kunlari mamlakatimizda ixtisoslashgan "Tashkent book fest - 2019" I Xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasi tashkil etilib, unda Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarining 20 ga yaqin va 30 dan ortiq mahalliy nashriyotlar, 15 ming nafardan ortiq soha mutaxassislari, keng jamoatchilik

²³⁴<https://lex.uz/docs/3338600> (Murojat etilgan sana: 01.03.2023)

²³⁵<https://lex.uz/docs/-4887792>(Murojat etilgan sana: 01.03.2023)

vakillari hamda yoshlar ishtirok etdi. Besh tashabbus loyihasi doirasida tashkil etilgan “Ma’rifat karvoni” tadbirlari orqali 3 milliondan ortiq kitob yoshlarga yetkazib berildi, “Yoshlar kutubxonachi” rukni ostida 59 ta nomda 590 ming ta badiiy adabiyot chop etilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi. “Yosh kitobxon” ko’rik tanlovi doirasida 2017-2019-yillar oralig’ida 2 170 000 dan ortiq yoshlar qamrab olindi. Ko’rik tanlovda g’olib bo’lgan 9 nafar iqtidorli yoshlar Prezident sovg’asi “Spark” avtomashinasi bilan taqdirlandi.

Mamlakatimizda kitobxonlikni keng yoyish uchun zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi alohida muhim o’ri tutadi. Respublikada 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta’lim mussasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O’zdavkitobsavdota’mnot” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko’rsatish yo’lga qo’yilgan²³⁶.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-sonli “2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash milliy dasturi”ni²³⁷ tasdiqlash to’g’risidagi qarori qabul qilindi. Dastur uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich - 2020-2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo’yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

Ikkinci bosqich - 2022 - 2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

Uchinchi bosqich - 2024 - 2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellectual salohiyati o’sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash;

Shu bilan qarorda 2021 yildan boshlab har yil aprel oyining birinchi haftasida “Kitobxonlik haftaligi” o’tkazish belgilandi. Haftalik doirasida turli tadbirlar, davra suhbatlari, treninglar, yangi kitoblar taqdimotlarini o’tkazish, tarjima qilingan dunyo adabiyoti namoyondalarining kitoblari bilan yaqindan tanishtirish, kitob yarmarkalari tashkil etish orqali aholining kitob o’qishga, kitobxonlikka bo’lgan qiziqishini oshiradi. “Farzandlarimizni ota-bobolarimizning shonli an’analari ruhida, bugungi dunyoning shaxs kamolotiga xizmat qiladigan yutuqlari asosida tarbiyalashda kitobni rolini boshqa narsa bilan almashtirib bo’lmaydi”²³⁸.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar negizida yoshlarni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalash, yetuk salohiyatli, intelektual qobilyatli

²³⁶ Shaxs kamoloti va kitobxonlik madaniyati (kun.uz) (Murojat etilgan sana: 01.03.2023)

²³⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-5160827> (Murojat etilgan sana: 01.03.2023)

yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish, ularni har tomonlama qo'llab-quvatlash orqali "Yangi O'zbekistonning" yangicha dunyoqarash va ilmda tengsiz kadrlarini tarbiyalashga qaratilmoqda deb aytishimiz mumkin.

Shu o'rinda bu soha bo'yicha ayrim taklif va tavsiyalarni bayon qilish joiz. Kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha hali ko'pgina muommolar o'z yechimini topganicha yo'q. Jumladan, kitoblarning qimmatligi bu esa kitobxonlarning o'z ehtiyojlaridan ortib kitob oilishlariga qiyinchilik to'g'dirmoqda. Ayniqsa, talaba yoshlar, o'quvchilar, ilm talabidagilar uchun yetarli darajada o'quv qo'llanmalari va darsliklari yetishmasligi, chekka hududlarda kutubxonalarning yetarli adabiyotlar bilan ta'minlanmaganligi, mavjud adabiyotlarning ham holati yaxshi emasligi achinarlidir. Yuqoridagi masalalarga dunyo miqyosida turli yechimlar topilgan, ya'ni, kitoblarni qimmatligi ortidan yuzaga keladigan muommolarga yechim sifatida davlat ishida ishlaydigan fuqarolarga qo'shimcha mablag'lar to'lab beriladi. Bunda xodimning o'qigan kitoblari soniga qarab mablag' to'lanadi. Bundan tashqari xodimlarning o'qigan kitoblariga qarab soliq majburiyatini ham kamaytirilsa, nafaqat yoshlar, balki ishchi-xodimlar o'rtasida ham kitobxonlikning keng yoyilishiga olib keladi deb xisoblayman.

¹ Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboev, M.Bekmurodov, L.Tangriev. – Toshkent: Yoshlar. 2019. – B. 131.

FOYDALANILGAN ADABITOTLAR RO'YXATI:

1. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн" асари темурийлар давридаги маданий-маърифий жараёнлар тавсифи бўйича қимматли манба сифатида // ФарДУ Илмий хабарлари. – Фарғона, 2020. № 3. –Б. 115-121. (07.00.00. № 32).
2. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн" асарида темурийлар давридаги адабиёт, тарих, санъат ва ҳунармандчилик соҳаларига доир маълумотлар // ҚарДУ Хабарлари. – Карши, 2020. № 3. –Б. 70-74. (07.00.00. № 25).
3. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн" асарида Темурийларнинг маданиятга муносабати тавсифи // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2020. № 11/3. –Б. 39-46. (07.00.00. № 41).
4. Akhmedov S. B. Analysis of Information on Local Embassy Relations in Abdurazzak Samarkandi's Work" Matlai Sadayn Wa Majmai Bahrain" //REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS. – 2021. – Т. 11. – № 3. – Р.

5. Ахмедов С.Б., Бойматов Ҳ. "Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн" асаридаи айрим маълумотлар таҳлили // Шарқ машъали. – Тошкент, 2021. № 3. –Б. 133-138. (07.00.00. № 9).

6. Ахмедов С.Б. "Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн" асарида Хитой ва Ҳиндистондаги меъморий иншоотлар ва маданий ҳаёт // Шарқшунослик. – Тошкент, 2021. № 3. –Б. 136-151. (07.00.00. № 10).

7. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн" асарида Дағти Қипчоқ, Гуржистон, Озарбайжон, Рум, Мұғулистон ва бошқа мамлакатлар билан олиб борилган элчилик алоқаларига оид маълумотлар таҳлили // Ўзбекистон-Туркия муносабатлари тарих қўзгусида (қадимги давр, ўрта асрлар ва ҳозирги замон) халқаро конференцияси материаллари. – Тошкент, 2021. –Б. 750-759.

8. Akhmedov S.B. Analysis of information of embassy relations in Abdurazzak Samarkandi's work "Matlai sadayn wa majmai bahrain" // International scientific and practical conference "Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations". - Prague, 2022. -P. 137-147.

9. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн" асарида келтирилган эпидимологик вазиятлар тўғрисидаги маълумотлар таҳлили // "Илмий тадқиқотлар, инновациялар, назарий ва амалий стратегиялар тадқиқи" мавзусидаги 1-сонли республика кўп тармоқли, илмий конференцияси. – Тошкент, 2022. –Б. 499-502.

10. Ахмедов С.Б. Абдураззоқ Самарқандийнинг "Матлаи садайн ва мажмаи баҳрайн" асарининг номланиши. // Театр. – Тошкент, 2021. № 2. –Б. 38- 40.

11. Akhmedov S.B. Expression of the development of the uzbek language during the time of the Temurian in period sources // International scientific and practical conference Innovative development in the global science. – Boston, 2022. – P. 193-198.